

**Voyaga yetmagan jismoniy shaxslar uchun  
milliy valyutadagi “Bolajon” jamg‘arma omonati  
SHARTNOMASI**

№ \_\_\_\_\_

20 \_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_ shahar \_\_\_\_\_

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining bank xizmatlari ofisi( keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi \_\_\_\_\_ Nizom va Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tarafdin va \_\_\_\_\_ tug‘ilgan sana: “\_” \_\_\_\_\_, (keyingi o‘rinlarda – Omonatchi), uning qonuniy vakili \_\_\_\_\_ (to‘liq ismi, pasport ma‘lumotlari, qarindoshlik darajasi/vasiylik asoslari) tomonidan ifodalanadi, ikkinchi tarafdin, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdik.

**1-§. Shartnoma predmeti**

1. Bank Omonatchining \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) pul mablag‘ini qabul qiladi va uni 20406000.... omonat hisobvarag‘iga omonat shartlariga muvofiq joylashtiradi.

2. Omonatchiga \_\_\_\_\_-sonli Omonat daftarchasi ochildi va unda yuqorida ko‘rsatilgan hisobvaraqa kirim qilingan omonat qiymati va boshqa tegishli ma‘lumotlar o‘rnatilgan tartibda aks ettiriladi

**2-§. Omonat shartlari va hisob-kitob qilish tartibi**

3. Bolalar uchun jamg‘arma omonati Omonatchi 18 yoshga to‘lgunga qadar, ya‘ni omonat sanasi \_\_\_\_\_ gacha bo‘lgan muddatga ochildi va omonat \_\_\_\_\_ da qaytariladi.

4. Omonatga yilda 365 kun hisobidan yillik 14 foiz daromad hisoblanadi.

5. Omonat bo‘yicha foizlar muddati tugashi bilan to‘lanadi, kapitalizatsiya qilinmagan holda.

6. Omonatning minimal miqdori 1000 000,00 (bir million) so‘m.

7. Omonatni uning butun muddati davomida to‘ldirishga ruxsat beriladi.

8. Omonatdan mablag‘larni qisman yechib olishga ruxsat berilmaydi.

9. Omonat bo‘yicha foiz omonat Bankka qabul qilingan kunning keyingi sanasidan boshlab omonatni Omonatchiga qaytarib beriladigan sanasigacha hisoblanadi.

Omonatchining omonat hisobvarag‘i xatlanganligi oqibatida Bank omonatdagi pul mablag‘idan foydalana olmagan davr uchun foiz hisoblanmaydi.

10. Mablag‘lar omonatga qabul qilinadi:

a) bank kassasi orqali naqd pulda;

b) omonatchining qonuniy vakili nomiga ochildan bank kartasidan mablag‘larni naqd pulsiz shaklda o‘tkazish orqali;

d) omonatchi tomonidan 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan davrda omonat ochildan taqdirda, omonatchi nomiga ochildan bank kartasidan mablag‘larni naqd pulsiz shaklda yechib olish orqali;

11. Uchinchi tomon hisobvaraqlaridan to‘ldirishga ruxsat berilmaydi.

12. Omonat summasi va hisoblangan foizlar faqat omonatchi 18 yoshga to‘lgandan keyin qaytariladi, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

13. Omonatchi 18 yoshga to‘lgandan so‘ng, omonat yopilishi yoki Bankda jismoniy shaxslarning omonatlari uchun amal qilayotgan shartlar asosida qayta rasmiylashtirilishi lozim.

Agar omonatni qaytarish muddati dam olish yoki bayram kunlariga to‘g‘ri kelsa, omonat keyingi bank ish kunida qaytariladi.

14. Bank omonati shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish va pul mablag‘larini qaytarib berish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda, quyidagi hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

- a) Qonuniy vakilning (ota-ona, farzandlikka oluvchi, vasiy) yozma arizasi hamda vasiylik va homiylik organining oldindan bergan ruxsatnomasi;
- b) Qonuniy kuchga kirgan sud hujjati (sud hal qiluv qarori, buyrug‘i yoki ajrimi);
- d) Merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi guvohnoma yoki sud qarori — omonatchi vafot etgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda

15. Omonat muddatidan oldin yopilgan taqdirda, Omonatchi rejalashtirilgan mablag‘ni olish sanasidan kamida bir oy oldin Bankka xabar berishi shart. Bu holda, shartnoma bekor qilinadi va Bank omonatni muddatidan oldin qaytaradi. Omonat bo‘yicha hisoblangan foizlar omonat saqlangan to‘liq oylar uchun to‘liq to‘lanadi va to‘liq bo‘lmagan oy uchun hisoblangan foizlar bekor qilinadi va to‘lanmaydi.

16. Omonatchi omonat muddati tugagandan keyin omonatni qaytarib olmasa, mazkur Omonat shartnomasi talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat shartlari asosida uzaytirilgan hisoblanadi, keyingi amaliyot kunida uning uchun talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag‘i ochiladi. Omonat mablag‘i va unga hisoblangan foiz, ushbu kundan boshlab, Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag‘idagi shaxsiy hisobvaraqa o‘tkaziladi.

### **3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

#### **17. Bank quyidagi huquqlarga ega:**

- a) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qonuniy vakildan omonat ochish, xizmat ko‘rsatish va yopish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma‘lumotlarni taqdim etishni talab qilish;
- b) qonunda belgilangan tartibda omonatchini yoki uning qonuniy vakilini, shu jumladan biometrik ma‘lumotlardan foydalangan holda aniqlash;
- d) Bank “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in quroli tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalarini” (Adliya vazirligi tomonidan 2017-yil 23-mayda 2886-son bilan ro‘yxatga olingan) talablariga muvofiq ravishda omonatchidan hujjatlar (ma‘lumotlar) taqdim etilishini talab qilish huquqiga ega.
- e) agar qonuniy talablar buzilganligi aniqlansa, hujjatlar taqdim etilmagan bo‘lsa yoki O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo‘lsa, omonat ochishdan bosh tortish yoki omonat operatsiyalarini to‘xtatib turish;
- f) agar mablag‘lar manbasining qonuniyligiga yoki bitimning qonuniy talablarga va Bankning ichki protseduralariga mos kelmasligiga shubha tug‘ilsa, mablag‘larni qabul qilishdan yoki ularni omonatga kiritishdan bosh tortish;
- j) Bank tariflarida nazarda tutilgan hollarda va miqdorlarda haq olish va komissiyalarni ushlab qolish.

#### **18. Bank quyidagilarni amalga oshirish majburiyatini oladi:**

- a) bank omonati shartnomasi shartlariga va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq bolalar jamg‘armasi omonatini ochish va yuritish;
- b) omonatchining mablag‘lari xavfsizligini ta‘minlash va belgilangan tartibda va miqdorda omonat bo‘yicha foizlarni hisoblash;

d) omonatchiga yoki uning qonuniy vakiliga omonat shartlari, hisobvaraqlar holati, hisoblangan foizlar va qonun hujjatlarida va Bankning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilgan operatsiyalar haqida ma'lumot berish;

e) omonat ma'lumotlarining maxfiyligini saqlash va u haqida faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan talablarga muvofiq ma'lumot berish;

f) omonat va hisoblangan foizlarni bank omonati shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda qaytarish;

j) agar Bank mijozning omonat hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'ysa, mijozga uning omonat hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi va to'xtatib qo'yish sabablari to'g'risida xabarnoma yuborish;

#### **19. Omonatchi (voyaga yetmagan) va qonuniy vakilning huquqlari.**

Omonatchi quyidagi huquqlarga ega:

a) bolalar jamg'arma hisobvarag'iga qo'yilgan mablag'larga egalik qilish;

b) 18 yoshga to'lgandan so'ng, omonatni to'liq boshqarish, shu jumladan uni yopish va mablag'larni olish;

d) ushbu bank omonati shartnomasida nazarda tutilgan tartibda va shartlarda omonatni va hisoblangan foizlarni olish.

#### **Qonuniy vakil quyidagi huquqlarga ega:**

a) voyaga yetmagan omonatchi nomidan va uning manfaatlarini ko'zlab bolalar jamg'arma hisobvarag'ini ochish.

b) Bankda omonatchining manfaatlarini himoya qilish, omonat haqida ma'lumot olish va omonatni ochish va yuritish bilan bog'liq arizalar va boshqa hujjatlarni taqdim etish;

d) ushbu shartnomada belgilangan tartibda omonatga naqd va (yoki) naqd pulsiz shaklda pul mablag'larini kiritish;

e) qonun talablariga muvofiq, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan sabablarga ko'ra omonat muddatidan oldin yopilgan hollarda ham Bankka arizalar taqdim etish.

Qonuniy vakil omonat hisobvarag'iga qo'yilgan mablag'larga egalik qilmaydi va ularni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etishga haqli emas, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida va ushbu shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

#### **20. Omonatchi (voyaga yetmagan) va qonuniy vakilning majburiyatlari.**

Omonatchi quyidagilarga majburdir:

a) bank omonati shartnomasi shartlariga rioya qilish;

b) Bankka qonun va Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan doirada ishonchli ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etish;

d) qonun bilan belgilangan yoshga yetgandan so'ng, Bankda shaxsni tasdiqlashdan o'tish;

e) 18 yoshga to'lganda, hisobvaraqlarni yopish, omonatni qayta rasmiylashtirish va unga kelgusida xizmat ko'rsatish uchun Bankka shaxsan murojaat qilish.

#### **Qonuniy vakil quyidagilarga majburdir:**

a) faqat voyaga yetmagan omonatchining manfaatlarini ko'zlab va qonun bilan berilgan vakolatlar doirasida harakat qilish;

b) Bankka qonuniy vakilning maqomini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish va bunday vakolatlarining har qanday o'zgarishi yoki bekor qilinishi haqida Bankka o'z vaqtida xabar berish;

d) omonat hisobvarag'ini ochish, unga xizmat ko'rsatish va yopish uchun zarur bo'lgan aniq ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etish.

e) ushbu bank omonati shartnomasi shartlariga va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya qilish;

f) qonunda aniq nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, shaxsiy manfaatlar uchun yoki uchinchi shaxslar foydasiga omonat mablag'larini tasarruf etishning oldini olish;

j) Bankning so'roviga asosan, "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidolari" (Adliya vazirligi tomonidan 2017 yil 23 mayda 2886-son bilan ro'yxatga olingan) talablariga muvofiq qo'shimcha hujjatlar va (yoki) ma'lumotlar taqdim etilishi lozim.

#### **4-§. Tomonlarning javobgarligi**

21. Taraflar omonat shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

#### **5-§. Fors-major holatlari**

22. Taraflar fors-major holatlar amal qilgan davrda omonat shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarining qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun javob bermaydilar.

Fors-major holatlarga quyidagilar kiradi: tabiiy hodisalar (zilzila, ko'chki, dovul, qurg'oqchilik va sug'urta shartnomasida sanab o'tilmagan boshqa tabiiy hodisalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (harbiy harakatlar, ish tashlashlar, qamallar, davlat tashkilotlarining hamda davlat tashkilotlari o'rtasidagi cheklovchi va taqiqlovchi choralar, shuningdek Hukumat qarorlari va boshqalar) oqibatida kelib chiqqan favqulodda, joriy sharoitda bartaraf etib bo'lmaydigan va oldindan kutilmagan vaziyatlar, agar ushbu vaziyatlar omonat shartnomasini bajarishga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa.

Fors-major holatlar yuzaga kelganda va to'xtaganda taraflar bir-birini xabardor qiladilar. Xabarnoma taraflarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin (SMS va MMS xabarlariga bundan mustasno).

Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda majburiyatlarni bajarish muddatini taraflar fors-major holatlar amal qilgan davrga mutanosib tarzda kechiktiradilar.

#### **6-§. Alohida shartlar**

23. Ushbu omonat shartnomasi omonat mablag'i Bank kassasiga qabul qilingan yoki omonat hisobvarag'iga tegishli mablag' naqd pulsiz shaklda kelib tushgan kundan boshlab kuchga kiradi.

24. Mazkur Shartnomaning 18-bandi "j" kichik bandida nazarda tutilgan bildirishnomalar Mijozga omonatchining qonuniy vakili mobil telefoniga SMS-xabari yuborish orqali topshiriladi.

25. Bank mazkur omonat shartnomasi shartlariga Omonatchining huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qiladigan o'zgartirishlarni bir tomonlama kiritishga haqli emas.

26. "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga (2025-yil 18-fevraldagi O'RQ-1031) muvofiq jismoniy shaxslarning omonatlari kafolatlarga bo'ysunadi. Kafolatlangan hodisa yuz bergan taqdirda, omonatchi bitta bankdan qonun bilan belgilangan quyidagi miqdorlarda kompensatsiya olish huquqiga ega:

a) agar uning miqdori ikki yuz million so'm yoki undan kam bo'lsa, kafolatlangan aktivning to'liq qoldig'i;

b) kafolatlangan aktivning qoldig'i ikki yuz million so'mdan oshsa, ikki yuz million so'm.

27. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan boshqa holatlar uchun O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari normalari qo'llaniladi.

28. Taraflar barcha nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etadi.

Taraflar omonat shartnomasi bilan bog‘liq bo‘lgan, muzokara yo‘li bilan hal qilish mumkin bo‘lmagan nizolarni Bank (bank xizmatlari ofisi) joylashgan joydagi tegishli sudda ko‘rib chiqishga kelishib oldilar.

29. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzildi, uning bir nusxasi Bankda, ikkinchi nusxasi Omonatchida saqlanadi.

#### 7-§. Tomonlarning pochta manzili, rekviziti va imzolari

| Bank:                               | Omonatchi:                                      |
|-------------------------------------|-------------------------------------------------|
| Manzili: _____                      | Manzili: _____                                  |
| Tel.: _____ Bank kodi: _____        | Shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari: _____ |
| Bank hisobvarag‘i: _____            | JSHSHIR: _____                                  |
| Boshqaruvchi: _____<br>(muhr o‘rni) | _____<br>(familiyasi, ismi va otasining ismi)   |
|                                     | _____<br>(imzo)                                 |